



## MEDIATSIYA – OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA

**Ibratova Feruza Boboqulovna**

*Toshkent davlat yuridik universitetining  
professor v.b., yuridik fanlar doktori*

**Ravshanov Bobur Orif o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyaning ahamiyati, mohiyati, muammolari, mamlakatimizda aholining demografik o'sishi natijasida sud organlariga bo'lgan bosimning ortishiga va bundan tashqari aholining huquqiy ongining o'sishi natijasida aholiga oilaviy nizolarni muqobil va tezkor yo'l orqali hal etish maqbulroq hisoblanishi kabi masalalar tahlil etilgan. Maqolada mediatsiyani qo'llash yaxshi samara beradi, degan xulosaga kelingan, chunki er-xotinlarga ajrashishning huquqiy, ma'naviy va moddiy zararlarini ko'rsatib berish va ularga to'g'ri maslahatlar professional insonlar tomonidan amalga oshirilganda, ularning tushunishu va qabul qilishi oson bo'ladi.*

**Tayanch so'zlar:** *oilaviy mediatsiya, mediator, huquqiy nizo, hal etish, muqobil usullar, fuqarolik jamiyati, qaror chiqarish.*

Zamonaviy dunyoda o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari alohida ahamiyatga ega, agar jamoat munosabatlari sub'ektlari xulq-atvor qoidalarini mustaqil ravishda belgilash va ularga rioya qilinishini nazorat qilish imkoniyatiga ega<sup>1</sup>. Fuqarolik muomalsi ishtirokchilarining faolligi va mas'uliyatining o'sishi davlatga muayyan sohalardagi vakolatlarining bir qismini fuqarolik jamiyati institutlariga berish imkonini beradi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, huquqiy nizolarni hal etish anashu yo'nalishlardan biriga kiradi. Demak amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari natijalarini tahlil qilishda ikkinchi majburmajburiy qaror chiqarish yo'li bilan huquqni muhofaza qilish faoliyati va plyuralistik yondashuvga o'tish, ya'ni qarama-qarshi tomonlarga kelishmovchiliklarni hal qilish imkoniyatini ta'minlash orqali ularni hal qilish yo'lini tanlash huquqini berish zarurligini tan olib, yarashtirish tartib-qoidalaridan foydalanish zarur<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda aholining demografik o'sishi natijasida sud organlariga bo'lgan bosimning ortishiga va bundan tashqari aholining huquqiy ongining o'sishi natijasida aholiga nizolarni muqobil va tezkor yo'l orqali hal etish maqbulroq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya

<sup>1</sup> Бесемер Х. Медиация. – 2004.

<sup>2</sup> Аллахвердова О. В. и др. Медиация. – 2016.

instituti, hakamlar sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish maqsadlari belgilab olindi<sup>3</sup>. O'zbekistonda aholining demografik o'sishi juda tez sur'atlar bilan jadallamoqda va aholining huquqiy ongi o'sib bormoqda, bu esa sudlarga bo'lgan bosimning ortishiga olib kelmoqda va oxir-oqibat kichkina sabablar orqali oilalarning buzilishiga olib kelmoqda shundan kelib chiqib xolis uchinchi shaxsning aralashuvi orqali nizoni hal etish samarali natijalarga olib kelmoqda<sup>4</sup>. Oxirgi yillarda oilalarning ajralishi mamlakatimizdagi eng og'riqli nuqta sanalmoqda buni raqamlar ham yaqqol ko'rsatmoqda, xususan 2019 yilda 16000 ta, 2020 yilda 12 800 ta, 2021 yilga kelib 19 407 ta oilada nikoh bekor qilingan. Hududlar kesimida qaraladigan bo'lsa, 2021 yilda Toshkent shahrida 2830 ta, Farg'ona viloyatida 2 111 ta, Samarqand viloyatida 2041 ta, Toshkent viloyatida 2018 ta, Jizzax viloyatida 620 ta, Navoiy viloyatida 620 ta, Navoiy viloyatida 645 ta, Sirdaryo viloyatida 662 ta nikoh bekor qilingan.

Bu raqamlar mamlakatimizda ahvolning naqadar og'ir ekanligidan dalolat beradi. Bu ajralishlarga ko'plab omillar sabab bo'lishi mumkin masalan: er-xotinning birining yoki har ikkalasining ortiqcha ish bilan ta'minlanganligi, uy-joy muammosi, moddiy qiyinchiliklar va ularga qo'shimcha ravishda oilaning boshqa a'zolari ya'ni qaynona va qaynotalarning aralashuvlari natijasida ajralishlar ko'payib ketmoqda<sup>5</sup>. Ko'pchilik uchun oiladan ajralish erkinlik va doimiy davom etgan qiyinchilik tazyiqdan xalos bo'lish deb hisoblaydi lekin ajralish olib keladigan oqibatlar uning beradigan foydasidan ko'proqni tashkil etadi<sup>6</sup>. 2019-yilda 51 nafar ayolda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatmoqdaki ajrashgan ayollarning asosiy qismida quyidagi 3 muammo paydo bo'lmoqda:

– **urur-joy muammosi.** Bola bilan otasirikida yashash qiyin. Ijara narxi esa qimmat. To'langan aliment bu pulning yarmini ham qoplamaydi.

– **Farzandlar ota mehrisiz o'sadi.** So'rovnomada qatnashgan 51 nafar ayolning 44 nafarida jami 70 nafar bola bor va ularning 99% otasi bilan umuman ko'rishmasligi ma'lum bo'lgan. Birgina 2019 yilda 31389 ta oila ajrashganini hisobga olinsa bunday bolalar soni qancha bo'lishi mumkin.

– **Ajrashgan ayollarga jamiyatda noto'g'ri ko'z bilan qaraladi.**

Oilaviy nizolarni hal etish tizimi mamlakatimizda qoniqarli darajada yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Oilada kelib chiqadigan har qanday nizoni hal etishning muqobil yechimlari mavjud ajrashayotgan er-xotonga birinchi navbatda to'g'ri ko'nikmalar berish kerak<sup>7</sup>. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 40-moddasi 2 –qismiga ko'ra asosan hikohni sud tartibida ajratishda sud ishni ko'rishni keying qoldirib, er-xotonga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli<sup>8</sup>. Aynan shu olti oylik muddat qanchalik oilalarni saqlab qolishda qanchalik naf bermoqda ?

Mediatsiyani olti oy muddatda qo'llash yaxshi natija beradi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki yarashtiruv ishlari sud tartibida ishlarni ko'rishdan ko'ra maqbulroq va

<sup>3</sup> Карпенко А. Д. и др. Медиация. – 2016.

<sup>4</sup> Аллахвердова О. В. Медиация как социально-психологический феномен //Вестник Санкт-Петербургского университета. Политология. Международные отношения. – 2007. – №. 2-1. – С. 151-159.

<sup>5</sup> Феоктистов А. В. Медиация как способ урегулирования конфликтов //Концепт. – 2014. – №. S27. – С. 51-55.

<sup>6</sup> Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.

<sup>7</sup> Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi "O'zbekiston" Nashriyoti Toshkent ...1998-yil

foydaliroq sanaladi. Germaniyada mediatsiya barcha oilaviy nizolarda qo'llashnilishi mumkin masalan: otalikni belgilash, ajrashish, bolalarni himoya qilish, aliment masalalari. Bunda mediator bilan nizoni hal etish tomonlarga taklif etiladi suddan oldingi jarayonda<sup>9</sup>. Agar tomonlar xoxlagan taqdirda mediator ishtirokida nizo ko'rib chiqiladi va ishni ko'rib chiqish 6-7 uchrashuvdan iborat bo'ladi. Mediator xolis inson xisoblanadi va tomonlarga ajralishning huquqiy va ma'naviy oqibatlarini tushuntirish orqali ularni fikridan qaytarishga harakat qiladi<sup>10</sup>. Mamlakatimizda ham mediatsiyani keng qo'llash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son qarori bilan mediatsiyani yanada kengroq qo'llash yanada maqsadga muvofiqdir.

Sud tomonidan beriladigan yarashish uchun olti oylik muddat davomida tomonlarni mediatsiyani qo'llashga ko'ndirish yaxshi samaraga olib keladi. Bu qanday qilib amalga oshiriladi?

Bizga ma'lumki sudga murojaat qilgan tomonlarning ma'lumotlari sud organi xodimlarida mavjud hisoblanadi, tomonlarga olti oylik muddat berilgan vaqtda ularni mediator bilan uchrashishni majburiy qilish kerak<sup>11</sup>. Ularni qanday qilib majburlash mumkin? Tomonlar keyingi marotaba ariza kiritayotgan vaqtda mediatorning ularning ishiga bergan xulosasi orqali kelishlari kerakligi orqali erishiladi. Buni amalga oshirish uchun har bir hududdagi Fuqarolik sudlari binosida mediatsiya markazini tashkil etish kerak, shunda murojaat qilgan tomonlar sud binosining o'zida mediator xizmatidan foydalanadi<sup>12</sup>. Murojaat qilgan tomonlarning mediator bilan uchrashuv vaqtlari electron tarzda amalga oshiriladi. Ya'ni murojaatchilarning arizalari va ma'lumotlari electron tarzda mediatorga yetkaziladi<sup>13</sup>. Mediator ular bilan uchrashuvlar tashkil etib ishning haqiqiy mohiyatini anglaydi, chunki muloqotlar har bir tomon uchun alohida vaqtlarda tashkil etiladi. Shuni ham takidlab o'tish kerakki oilaviy nizolarni ko'rish va xulosalar berishda mediatorning hayotiy tajribasi muhim hisoblanadi<sup>14</sup>. O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya to'g'risidagi qonuni"ning 12 moddasiga ko'ra mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs 25 yoshga to'lgan bo'lishi kerak<sup>15</sup>, ammo oilaviy nizolarni ko'rishda bu qonuni o'zgartirishni talab etadi, chunki inson o'zi ma'lum bir vaziyatlarga tushmasdan bu vaziyat haqida tasavvurga ega bo'la olmaydi. Bu yosh chegarasini istisno tariqasida oilaviy nizolarda 35 yosh etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Hayot sinovlarini ko'rgan va ular bilan yuzlashgan insonlar oilaviy nizolarni ko'rishda va jarayonda qatnashishlari kerak.

<sup>9</sup> Максудов Р. Р. Восстановительная медиация: идея и технология //Методические рекомендации. М.: Институт права и публичной политики. – 2009.

<sup>10</sup> Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 20. – С. 143-147.

<sup>11</sup> Карнозова Л. М. Медиативный метод: классическая и восстановительная медиация //Вестник восстановительной юстиции. – 2013. – №. 10. – С. 6-18.

<sup>12</sup> Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

<sup>13</sup> Коновалов А. Ю. Медиация в системе образования: обзор опыта разных стран //Психологическая наука и образование www. psyedu. ru. – 2014. – Т. 6. – №. 3. – С. 18-30.

<sup>14</sup> Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team. – 2019. – Т. 1. – С. 13-19.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi "Mediatsiya" qonuni O'zbekiston Nashriyoti Toshkent...2018-yil

Mediatsiyaning nizolarni hal qilish uchun bir qancha metodlari mavjud: tezlashiruvchi, o'zgartiruvchi va baholovchi<sup>16</sup>.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar nizoni hal qilishga yordam bermasligi mumkin, bunga bizning xalqimiz mentalitetiga singib ketgan ba'zi illatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin: oiladagi tomonlardan birining xiyonati, o'zbek oilalarida qadimdan davom etayotgan bir tom ostida ko'pchilik bo'lib yashash kabilarni keltirishimiz mumkin<sup>17</sup>. Shunday xolatlarda qadimda bizda mediatorlarning eski nusxasi ya'ni oqsoqollar yoki otinoyilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Oqsoqollar, otinoyilar o'sha hududdagi gapi o'tadigan va insonlar orasida hurmati yuqori bo'lgan insonlar bo'lishgan shuni hisobga olsak mediatsiya mamlakatimiz uchun yangi soxa emas<sup>18</sup>. Hozirgi kunda oilaviy ajralishlarning asosiy sababi ikki tomonning zamonga mos shakllangan dunqorashi va oila deb nomlangan qo'rg'onning qadriga yetmasligi sababli kelib chiqmoqda. Ularga to'g'ri yo'lni esa shu soxada yuqori tajribasi bor bo'lgan insonlar ya'ni mediatorlar orqali yetkazish oilalarning kamroq ajralishi va bolalarning kamroq tirik yetim bo'lishidan saqlaydi<sup>19</sup>.

Xulosa qilib aytganda 21-asr texnika – texnologiyalar asri hisoblanadi. Bu asrga kelib insonlarning fikrlashi, dunyoqarashi nihoyatda o'zgardi<sup>20</sup>. Insonlar orasida yengil-yelpi hayotga intilish, o'ziga tegishli bo'lgan inson bu er yoki xotin munosabatlarining to'g'ri tushunmaslik oila qo'rg'onining buzulishiga olib kelmoqda<sup>21</sup>. Bu vaziyatlarda mediatsiyani qo'llash yaxshi samara beradi chunki er-xotinlarga ajrashishning huquqiy, ma'naviy va moddiy zararlarini ko'rsatib berish va ularga to'g'ri maslahatlar professional insonlar tomonidan amalga oshirilganda, ularning tushunishu va qabul qilishi oson bo'ladi<sup>22</sup>. Bu insonlar birinchi navbatda psixologik, hayotiy tajriba ko'nikmalari shakllangan bo'lishi kerak. Nizolarni muqobil hal qilish ikkinchi navbatda sud organlariga bo'lgan bosimning kamayishiga olib keladi. Nizolarni muqobil hal etishni qo'llash nizolarni samarali hal etishda yordam beradi, sudlarga bo'lgan bosimning ortishi ularning ishlarni puxta o'rganish, ishni to'liq o'rganishga imkon bermaydi, mediatorlar esa sudlarga filtr vazifasini o'tab beradi, ya'ni ularning qarorlari va o'rganishlari sudyalarga aniq xulosalar chiqarish va to'g'ri qaror chiqarishga turtki bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бесемер Х. Медиация. – 2004.
2. Аллаhverдова О. В. и др. Медиация. – 2016.
3. Карпенко А. Д. и др. Медиация. – 2016.

<sup>16</sup> Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – Т. 1. – С. 13-19.

<sup>17</sup> Трофимец И. А. Медиация и расторжение брака //Российский судья. – 2014. – №. 10. – С. 17-19.

<sup>18</sup> Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.

<sup>19</sup> Лаврова Н. М., Лавров В. В., Лавров Н. В. Медиация: принятие ответственных решений. – 2013.

<sup>20</sup> Ibratova F. Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве: теоретические проблемы и практика //О 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 35-39.

<sup>21</sup> Иванова Е. Н. Современная медиация: тенденции и проблемы //Конфликтология. – 2011. – №. 1. – С. 146-167.

<sup>22</sup> Максуров А. А., Таланова М. В. Медиация в праве: юридическая технология медиативных процедур. – 2014.

4. Аллахвердова О. В. Медиация как социально-психологический феномен //Вестник Санкт-Петербургского университета. Политология. Международные отношения. – 2007. – №. 2-1. – С. 151-159.
5. Феоктистов А. В. Медиация как способ урегулирования конфликтов //Концепт. – 2014. – №. S27. – С. 51-55.
6. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 57-62.
7. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.
8. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi ``O'zbekiston''Nashriyoti Toshkent ...1998-yil
9. Максудов Р. Р. Восстановительная медиация: идея и технология //Методические рекомендации. М.: Институт права и публичной политики. – 2009.
10. Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 20. – С. 143-147.
11. Карнозова Л. М. Медиативный метод: классическая и восстановительная медиация //Вестник восстановительной юстиции. – 2013. – №. 10. – С. 6-18.
12. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
13. Коновалов А. Ю. Медиация в системе образования: обзор опыта разных стран //Психологическая наука и образование www. psyedu. ru. – 2014. – Т. 6. – №. 3. – С. 18-30.
14. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – Т. 1. – С. 13-19.
15. O'zbekiston Respublikasi ``Mediatsiya''qonuni O'zbekiston Nashriyoti Toshkent...2018-yil
16. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – Т. 1. – С. 13-19.
17. Трофимец И. А. Медиация и расторжение брака //Российский судья. – 2014. – №. 10. – С. 17-19.
18. Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.
19. Лаврова Н. М., Лавров В. В., Лавров Н. В. Медиация: принятие ответственных решений. – 2013.
20. Ibratova F. Мировое соглашение в гражданском судопроизводстве: теоретические проблемы и практика //O'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2018. – №. 4. – С. 35-39.



21. Иванова Е. Н. Современная медиация: тенденции и проблемы //Конфликтология. – 2011. – №. 1. – С. 146-167.
22. Максуров А. А., Таланова М. В. Медиация в праве: юридическая технология медиативных процедур. – 2014.